

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI

Bosimova Mahliyo Dilshod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'inch ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

Olloqulova Farzona Umedillayevna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning xulq-atvorini belgilovchi tarbiya jarayoni haqida sharq mutafakkirlarining qarashlari keltirilgan. Shuningdek muallif tomonidan o'z fikrlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: tarbiya, saxovat, yaxshilik, mutafakkir.

Abstract: This article presents the views of eastern thinkers about the educational process that determines human behavior. The author also expresses his own opinion.

Key words: education, generosity, kindness, thinker.

Tarbiya haqida so'z yuritar ekanmiz, odamzotni hayvonot olamidan farqlovchi uni kamolotga eltuvchi, ma'naviy qiyofasini belgilovchi jarayon tushuniladi. Tarbiya so'zi arabcha haq yo'lida hidoyat qilish, parvarish qilish, mehribonlik qilish degan ma'nolarni anglatadi. Tarbiya bu shaxsda jismoniy, ruhiy, ma'naviy, axloqiy sifatlarni shakllantiradigan jarayon bo'lib, kishining tug'ilganidan umrining oxirigacha amalga oshiriladigan hayotiy jarayondir. Tarbiya uzluksiz va tizimli bo'lib asrlar davomida shakllanib, sayqallanib, har bir davr uchun umumiy hisoblanadi. Xususan o'zbek millatining boshqa millat va elatlarda uchramaydigan tarbiya borasida shakllangan maktabi borki, buni sharq mutafakkirlarining qarashlarisiz tasavvur qilish qiyind, shuningdek nafaqat o'zbek millati qolaversa butun jahon tarbiya tamadduniga munosib hissa qo'shgan. Allomalarimizning asarlarida xalqchil, sodda tilda ajoyib misollar orqali tarbiya jarayoni yaqqol yoritib berilganki, har qaysi davr uchun muhim va dolzarbligini

saqlab qolgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Imom Buxoriy, Motrudiy, Amir Temur va boshqa mutafakkirlarimizning qarashlarini alohida takidlab o'tish zarur.

Sharq mutafakkirlarining tarbiya to'g'risidagi ta'limotlariga yuzlanar ekanmiz, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini alohida ta'kidlash lozim. Asarda saxovat va himmat to'g'risida shunday so'zlar keltirilgan: "Saxovat insoniyat bog'inining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushki anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt bir-u, o'tin ham bir, yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Isrof qilish saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas". Bu bilan himmatli kishi qashshoq bo'lsa ham tubanlikka bormasligini, himmatsiz kishi esa xazina topsa ham birov bilan baham ko'rmasligini ta'kidlangan. Saxovatli inson barchaga nafi tegadigan, soya salqin beradigan, insonlar uning hosilidan bahramand bo'ladigan daraxtga, saxovatsizlik esa gur etib yonib kuli ko'kka sovuriladigan o'tinga qiyoslanadi. Asarning yana bir o'rnida insonning ko'rki bo'lgan til haqida so'z yuritilar ekan, so'zida ma'no mazmun bo'lmagan, noo'rin so'zlaydigan kishi kechalari tong otguncha xuradigan itga, yomon so'zlar orqali insonlarning qalbi jarohatlanishi va o'zining ham boshiga kulfat yetishi, tilga erk berish behayollik, tilni tiya olish esa oqillik, donishmandlik alomatidir deya ta'riflanadi. Shuningdek Navoiy yaxshilik va yomonlik haqida ham so'z yuritir ekan, yaxshi odamdan, hatto yomonlar ham yomonlik kutmasligini uqtiradi: "Yaxshilikni yomonlikdan yaxshiroq deb bilmasang, yaxshilarga qo'shil, yaxshilik atrofida aylan".

Sharq mutafakkirlari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur'oni Karim suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsarmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar tashkil qiladi. Kaykovusning "Qobusnoma" asari ham bundan mustasno emas. Bu kitob "Parvardigori olamni tanimoq zikrida", "Payg'ambarlarning hilqati zikrida" boblari bilan boshlanadi. Bu asarda bolaga inson tarbiyasiga oid turli mavzularini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Qobusnoma" da

omonatni saqlamoq haqida hikoyat quyidagicha keltirilgan: " Omonatga xiyonat qilmagil omonatni qadri zar debdur. Rostgo'y bo'lgil, omonatni olishda guvohing bo'lsin. Agar bir kishi omonat topshirsa, hech xol bila olmadim. Uning bir jihati borki, omonatni qabul qilmoq bag'oyat mushkuldir. Agar qabul qilgan taqdiringda uni yaxshi saqlagin, toki omonatni egasiga topshirguncha". Bu hikmat bilan bola ongida olingan omonatga ko'z olaytirmaslik, uni egasiga o'zidek qilib qaytarish lozimligini shakllantiriladi. Yana bir hikmatda tamkin sharofati va taom tartibi haqida hikmatni keltirish mumkin. Unda quyidagicha keltirilgan: " Muxtasham xalqning ikki odati bo'ladi. Birinchisi, majlisga turlik taom keltirib, so'ng boshqalarga beradi. Ikkinchisi esa ,avval, majlisdagilarga berib keyin o'ziga oladi. Bunda ikkinchi sifat insonlar oliyroq turur, ya'ni ular oliyjanob, karamli insonlardir. Birinchi toifadagi esa siyosat ahlidandur. Kimning yanada yaxshi taomi bor bo'lsa uni boshqalar bilan baham ko'rishi kerak. Ovqatning yonida bu yaxshi, bu yomon deb ajratlasligi kerak. Chunki taomlar uchun bu so'z yaxshi emasdur". Bu hikmatning mohiyati bizga notanish emas va har bir oilada bolaga yoshligidan amaliy tarzda singdirib kelinadi. Bu odatlar bola tarbiyasidagi eng muhim belgilardir.

Tarbiya jarayoni haqida so'z yuritar ekanmiz, uning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Jumladan,

- tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro aloqadorligi;
- faoliyat va munosabat shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manba ekanligi;
- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri o'zaro munosabatlari, hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi.

Bu qonuniyatlar hozirgi zamon talabidan kelib chiqib tuzilgan bo'lsada, asli poydevori qadimdan, sharq mutafakkirlarimizning qarashlaru orqali shakllangan. Sharq mutafakkirlaridan yana biri Ahmad Yassaviyning hikmatlari ta'lim-tarbiya jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ma'naviy axloqiy xislatlar, muruvvat, saxovat, qanoat va rostgo'ylik targ'ib qilinadi. Nafs-

ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori sanaladi. O'ziga qanoat qilish, shukronalik, halol luqma yeyish inson tarbiyasining ijobiy ko'rinishi ekanligi ta'kidlangan. Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik ma'naviy qashshoqlik, yozuvlik, takabburlik, nodon insoning eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik razolat hukm surgan joyda ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayt etib o'tadi. Buning asosini tarbiya tashkil etishi alohida izohlangan.

Tarbiya haqida so'z ketganda Sohibqiron Amir Temur olib borgan siyosatida ham alohida ta'kidlash lozim. Temurning " Temur tuzuklari"da asosan harbiy yurishlari haqida so'z ketsada, uning asosiy mazmuni tarbiya jarayoniga borib taqaladi. Amir Temur farzandlarining tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratgan, farzandlari o'zini boshqara olish yoshiga yetgan va biror lavozimga tayinlangan bo'lishiga qaramay qilgan tarbiyasizligi uchun Amir Temur tomonidan munosib jazolangan hatto qamoq jazosiga ham tortilgan. Sharq mutafakkirlari asarlarini mutoala qilar ekanmiz tarbiya borasida ancha salmoqli ma'naviy, tarbiyaviy me'rozimiz borligiga amin bo'lamiz. Shiddat bilan rivojlanayotgan, bugungi axborot asrida yuqorida nomlari zikr etilgan pand nasihatlar yoshlar tarbiyasida dastirul amal bo'lishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z aksini topishi lozim. Zotan, tarbiya va yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.Ahmedov, R.Qochqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot 6- sinf darsligi.Toshkent " Ma'naviyat" -2017- yil.
2. 4.Kaykavus " Qobusnoma" ." Yangi asr avlodi" nashriyoti. Toshkent 2016- yil
3. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department

of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022

4. Ollokulova F.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiypedagogik ahamiyat. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415

5. R.D.Norqobilova. "Pedagogical basis of interdisciplinary communication in the educational process". International Journal on orange technologies. www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT e-ISSN: 2615-140|p-ISSN: 2615-7071 Volume: 02 Issue:10|OCT 2020. 108-111.

6. R.D.Norqobilova. "Determining and developing students' mother language ability as a social-pedagogical problem". JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 8, Issue 10, Oct., 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. 7-10.

7. R.D.Norqobilova. "Indikatorlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini diagnostika qilishning o'ziga xosligi". Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2022.

8. D.U. Azimova "Abdullah Avloni's Pedagogical Views and its Essence" The American Journal of Social Science and Education Innovations. 2021.

9. D.A. Usmanovna "Psychological problems of children and methods of solution" Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2022.

10. A.Dilfuza "Boshlag'ich ta'limda aksiologik yondashuv". PEDAGOGS jurnali, 2022

11. AD Usmonova "On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period" Middle European Scientific Bulletin, 2022.